Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o‘rni” mavzus...

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami *Andijan 2023 yil 10-noyabr*

Paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish asoslari.

Andijon mashinasozlik instituti, “Axborot tizimlari va texnologiyalari” yo‘nalishi 3-kurs talabasi Hojiyev Ixtiyor Bahodirjon o‘g‘li

Paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish zarurati.Ishlab chiqarish klasteri nima?

Bu tezisda paxta-to'qimachilik klasteri tashkil etishning tashkiliy huquqiy asoslari haqida va klasterlarni tashkil etish tamoyillari haqida.

Kalit so'zlar : paxta to'qimachilik klasterlari, paxta tozalash zavodlari, paxta sanoatini rivojlantirish,klasterni shakllantirilishi

Umumiy ma’noda, ishlab chiqarish klasteri iqtisodiyotning bir xil yoki bir-biriga bog‘liq sohalarida faoliyat yuritadigan va geografik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan korxonalar guruhidir. Bu korxonalaming texnologik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lishi juda muhimdir. Bundan tashqari, ushbu korxonalar bitta umumiy maqsad uchun - raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun birlashgan.Masalan, paxta-to'qim achilik klasterining texnologik zanjiri paxta xom ashyosini ishlab chiqarish, uni qayta ishlash, paxta tolasidan kalava ip ishlab chiqarish, gazlama ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o 'z ichiga qamrab oladi. Shu bilan birga, fermerlarni (paxta xom ashyosini etishtiruvchilami), paxta tozalash zavodini, paxtani qayta ishlash korxonasini, to'qimachilik fabrikasini va kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi korxonani birlashtirishning maqsadi-har bir ishlab chiqaruvchining xarajatlarini kamaytiradigan va yakuniy mahsulotning raqobatbardoshligini oshiradigan yagona tuzilma yaratishdir.

Paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etishning tashkiliy huquqiy asoslari. Zamonaviy paxta-to'qim achilik klasterini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun O 'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan, ushbu klaster ehtiyojlari uchun olib kelinadigan uskunalar, maxsus transport vositalari va texnika, hayvonlar va o'sim liklar, veterinariya preparatlari, xom ashyo va materiallar, qurilish mollari va issiqxona komplekslari 2022 yilning 1 yanvariga qadar muddatda bojxona toiovlaridan ozod qilindi. Shuningdek, paxta-to'qimachilik klasterlari paxta sanoatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun belgilangan bir qancha imtiyozlarga ega, jumladan:

-fermer xo'jaliklariga paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishining tegishli tashkilotchilari tomonidan kontraktatsiya shartnomasida nazarda tutilgan miqdorlarda va shartlar asosida avans berish;

-paxta-to'qim achilik ishlab chiqarishi tashkilotchilari paxta xom ashyosini etishtirish va ularga etkazib berishni moliyalashtirish uchun Molliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag'lari hisobidan kreditlar ajratish.

Klasterlarni tashkil etish tamoyillari va turlari.

Xorijiy mamlakatlarda klasterlami shakllantirish bo'yicha to'plangan tajribalar va amaliyotlardan m a’lumki, klasterlar asosan quyidagi yo'nalishlarda shakllantiriladi:

- birinchi yo'nalish Italiya modeli (sanoat okruglari) hisoblanib, kichik

Published: 10.11.2023

Cite this article: Hojiyev Ixtiyor Bahodirjon o‘g‘li (2023). Paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish asoslari. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/662

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

korxonalaming eksportni kengaytirish borasidagi kuchli konsentratsiyasiga asoslangan, bozorga chiqish va uni egallashda o'zaro rasmiy yoki norasmiy hamjamiyat asosida faoliyat yurituvchi ichki klasterlash shaklida[l];

- ikkinchi yo'nalish sanoat klasterlari hisoblanib, ular konsentrik doiralar hosil qiluvchi (markazlashgan tashkilotlar) markaziy boshqaruv tizimiga ega klaster shakli hisoblanadi. Bunday sanoat klasterlari tarkibida ilmiy loboratoriyalar, ilmiy tadqiqot markazlari va oliy o'quv yurtlari faoliyat yuritadi. Klasterlami bunday shakllantirish Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Fransiya tajribalarida aks etgan. Ularda xalqaro bozorlar uchun o 'ta kuchli hamkorlik va yuqori darajada shakllantirilgan rasmiy ichki aloqalar mavjud. Bunday klasterlaming asosiy xususiyatlari innovatsion faoliyatning sochilib ketishi va chiziqli bog'lanishning, mavjud emasligi kabilar bilan izohlanadi. Har bir klaster ishtirokchisining tizimning boshqaruv apparatiga zanjirli aloqasi ta’minlanadi va bu o'zaro integratsiyani ta’minlashga asosiy kalit hisoblanadi. Bunday klasterni tashkil etish jarayonida ko'proq moliyaviy manbalarga tayanishi esa unga davlatning aralashuvini shart qilib qo‘yishi bilan birga, asosiy moliyaviy ta’minotchisi sifatida qatnashishini rag‘batlantiradi. Klasterni shakllantirishning bunday usuli davlatning ko'magidagi va moliyaviy mablag‘ning kattaligi uni tashkil etishning kuchsiz tomoni bo'llsada, xalqaro bozorda mamlakat raqobatbardoshligini oshirishning asosiy vositasi yoki strategiyasi sifatida qaraladi;

uchinchi yo‘nalish sanoatlashtirish davriga xos hisoblanib, bunday klasterlash strategiyalaridan Skandinaviya, Shvetsariya va AQSHda keng qi'llanilgan . Ko'proq uchlik spiral hosil qiluvchi klasterlash modelining asosiy yo‘nalish i innovatsiyalami yaratishga urg'u beradi va yaratilgan innovatsiyalami klaster ishtirokchilariga sochib yuborish orqali raqobatbardoshlikni ta’minlash asosiy maqsad hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Турсунхужаев П.М. Корхоналарда ишлаб чикаришни ташкил килиш ва режалаштириш. Тошкент, 1997 й.
2. Маслов Е.В. Управление персоналом предприятия. М.: -1998 г.
3. Производственный менеджмент. Ильенкова С.Д. тахрири остида, М. 2001 й.
4. Пахтани дастлабки кайта ишлов бериш. Зикриеёв Э. умумий тах,рири остида, Укув кулланма. Т.; М ехнат -2002.
5. Ш епеленко Г.И. Экономика, организация и планирование производства на предприятии. Ростов-на-Дону. 2001 г.
6. Косимов F.M. Ташкилот ва ташкилий бошкариш назарияси. -Т., 2004Й.